

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISI KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK NAZOKATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi Kalandarova Fazilat Toxirovna*

*kalandarovafazilat3@gmail.com*

*Telefon: +99893-692-32-76*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456849>

*Annotatsiya:* ushbu maqola orqali maktab ta’limining poydevori bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida muhim bo‘lgan pedagogik nazokatni shakllantirishning mazmuni, ahamiyati hamda pedagogik nazokatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar, psixologik-pedagogik omillar va amaliy tavsiyalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, pedagogik mahorat, pedagogik nazokat, pedagogik muloqot, pedagogic madaniyat, pedagogik etika, kasbiy refleksiya, kasbiy kompetensiya, pedagogik texnologiya.

### **KIRISH (Introduction)**

Globalashuv jarayonida ta’lim tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida boshlang‘ich bosqich alohida ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shu davrda o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan munosabati, shaxsiy sifatleri va axloqiy qarashlari shakllana boshlaydi.

Boshlang‘ich ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati hamda shaxsiy fazilatlariga bog‘liq. Bu jarayonda pedagogik nazokat muhim o‘rin tutadi. Pedagogik nazokat o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotda hurmat, sabr-toqat va muloyimlikni namoyon etib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi.

Pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o‘quvchi shaxsini shakllantiruvchi tarbiyachi hamdir. Shu sababli u pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri munosabat bildira olishi, axloqiy qadriyatlarga tayanishi va ta’lim jarayonini nazokat bilan olib borishi zarur.

Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik nazokati o‘quvchilarning ruhiy holatini anglash, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik nazokatni shakllantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida pedagogik nazokatni shakllantirish usullarini ilmiy jihatdan asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **TADQIQOT METODLARI (Methods)**

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan bevosita muloqot qiluvchi muhim pedagogik subyekt hisoblanadi. Shu sababli uning kasbiy faoliyatida pedagogik nazokatni shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish;
- ta’lim jarayonini kuzatish;
- so‘rovnoma va suhbat metodlari;
- pedagogik tajribalarni umumlashtirish;

- refleksiv tahlil.

### **Pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish**

Mazkur metod orqali pedagogik nazokat tushunchasining nazariy asoslari o‘rganildi. Turli ilmiy manbalar tahlili asosida pedagogik nazokatning mazmuni, tarkibiy qismlari hamda pedagog shaxsiga qo‘yiladigan axloqiy va kommunikativ talablar aniqlashtirildi.

### **Ta’lim jarayonini kuzatish**

Kuzatish metodi o‘qituvchilarning amaliy pedagogik faoliyatini o‘rganish imkonini berdi. Jarayonda pedagoglarning muloqot madaniyati, nutqi, xulq-atvori va pedagogik vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan nazokat darajasi tahlil qilindi.

### **So‘rovnoma va suhbat metodlari**

Mazkur metodlar orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilarning pedagogik nazokatga doir qarashlari o‘rganildi. Natijada pedagogik nazokatni rivojlantirish jarayonida mavjud muammolar hamda ehtiyojlar aniqlashtirildi.

### **Pedagogik tajribalarni umumlashtirish**

Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish orqali pedagogik nazokatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali usullar tahlil qilindi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **Refleksiv tahlil**

Refleksiya pedagogning o‘z faoliyatini baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi o‘zining pedagogik xatti-harakatlarini tahlil qiladi hamda faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlaydi.

Tadqiqot obyekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati, predmeti esa pedagogik nazokatni shakllantirish jarayoni belgilandi.

## **NATIJJALAR (Results)**

Tadqiqot natijalari pedagogik nazokatni rivojlantirish bir qator omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida pedagogik nazokatni shakllantirish quyidagi yo‘nalishlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

### **1. Pedagogik muloqotni rivojlantirish**

O‘qituvchining nutq madaniyati, ovoz ohangi, mimika va jestlardan o‘rinli foydalanishi o‘quvchilar bilan samarali muloqotni ta‘minlaydi. Bu esa sinfda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga yordam beradi.

### **2. Kasbiy refleksiyani rivojlantirish**

Refleksiya o‘qituvchiga o‘z faoliyatini baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Bu jarayon pedagogik nazokatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

### **3. Pedagogik etika tamoyillariga amal qilish**

Pedagogik nazokatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri pedagogik etika me‘yorlariga rioya qilishdir. O‘quvchilarni hurmat qilish, baholashda adolatli bo‘lish hamda shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash muhimdir.

### **4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish**

Interfaol metodlar, muammoli ta‘lim va hamkorlikka asoslangan o‘qitish texnologiyalari pedagog va o‘quvchi o‘rtasida samarali hamkorlikni shakllantiradi.

## **MUHOKAMA (Discussion)**

Tadqiqot natijalari pedagogik nazokat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Pedagogda nazokat yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, ta‘lim jarayonining samaradorligi pasayishi mumkin.

Ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik muloqot madaniyati hamda refleksiya pedagogik nazokatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida pedagogik nazokatni rivojlantirishga qaratilgan treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

### **XULOSA (Conclusion)**

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida pedagogik nazokatni rivojlantirish ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Pedagogik nazokat o‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi, pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri yondashuv tanlashi va ijobiy psixologik muhit yaratishiga xizmat qiladi.

Pedagogik muloqot madaniyati, kasbiy refleksiya, pedagogik etika tamoyillariga amal qilish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish pedagogik nazokatni rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.

Maqolada bayon etilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar boshlang‘ich ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kalandarova, Fazilat Toxirovna Umumiy pedagogika /o‘quv qo‘llanma/ Kalandarova Fazilat Toxirovna. – Namangan: «SUNRISE-PRO», 2025. – 176 bet.
2. Toxirovna, K. F. (2024). O‘Qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. *Miasto Przyszłości*, 51, 146-148.
3. Kalandarova F.T. KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSI SIFATIDA. <https://www.iupr.ru/5-120-2024>
4. Kalandarova, F. (2024). O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA DEONTOLOGIK YONDASHUV. Namangan Davlat Universiteti.
5. Toxirovna, K.F BO‘AJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR Abdullayeva Nasibaxon Jo‘rayevna pfd, professor. *O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI*, 120.
6. Kalandarova Fazilat Tokhirovna. (2025). Improving the Deontological Competence of Primary Teachers on The Basis of Educational Technologies. *International Journal of Pedagogics*, 5(05), 42–45. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue05-11>
7. Toxirovna, K. F. . (2025). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TALABALARIDA DEONTOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA KASBIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 4(10), 96–98. Retrieved from <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/1600>